4.9. O'quv amaliyoti universitet amaliyot raxbari, fakultet dekani va tegishli kafedra mudiri xamda amaliyotga bevosita rahbarlik qiladigan mas'ul o'qituvchi tomonidan amaliyot obyekti raxbariyati bilan tuzilgan shartnoma asosida tashkil qilinadi.

4.10. Yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnoma asosida o'qiyotgan talabalar ushbu shaxslar talabi bo'yicha amaliyot o'tash uchun tegishli obyektga yuborilishi mumkin.

4.11. Amaliyotni belgilangan talablar asosida tashkil qilish va o'tkazilishi uchun javobgarlik o'quv ishlari prorektori zimmasida bo'ladi

4.12. O'quv amaliyoti maxsus sharoitlar va jixozlarga ega bo'lgan obyektlarda xamda amaliyot dasturiga mos faoliyat ko'rsatayotgan korxona, tashkilot va muassalarda o'tkaziladi. Amaliyot obyekti sifatida, odatda, ta'lim muassasasiga yak,in muassasalardan foydalashshadi.

4.13. O'quv amaliyotining me'yoriy xujjatlari vazirlik me'yoriy xujjatlari asosida fakultet (tegishli kafedra) tomonidan o'quv bulimi xdmkorligida tayyorlanadi va belgilangan tartibda tasdikdan utkaziladi.

4.14. Kasb bo'yicha eng ilgor yutukdar, yangi texnologiyalar, ishni ilmiy tashkil qilish, boshkarish tizimi va boshkd masalalar bo'yicha malakali mugaxassislarning ma'ruzalari fakultet dekani va kafedra mudiri tomonidan tashkil etiladi.

4.15. Talabaning asosiy vazifalari:

- O'quv amaliyoti dasturida ko'zda tugilgan topshiriqlarni to'liq bajarish;
- amaliyot obyektining ichki tartib-qoidalariga, Xayot xavfsizligi, gigiyena va sanitoriya qoidalariga qatin rioya qilish;

kundalik yuritish va unda obyekt to'g'risidagi dastlabki taassurotlar, berilgan topshiriqlar, uning ijrosi, taxlil va xulosalarini qayd etib borish;

- amaliyot raxbarining boshqa ko'rsatmalariga to'lq amal qilish va barcha ko'shimcha tadbirlarda faol ishtirok etish;
- kundalik va yozma xisobotni o'z vaqtida amaliyot raxbari topshirish hamda xisobotni komissiya oldida ximoya qilish;

4.16. Kafedra mudiri

- O'quv amaliyoti bo'yicha umumiy nazoratni amalga oshiradi;
- universitet amaliyot raxbari bilan birgalikda amaliyot o'tkazish haqidagi rektor buyrug'i loyixasini tayyorlaydi;

CamScanner yordamida skanerlangan

- amaliyot boshlanganch shartnoma tuzilgan amaliyot obyekti bilan aloqa o'rnatadi hamda amaliyot tartiblari va shartlarini kelishib oladi;

- amaliyot bo'yicha raxbar bilan birgalikda o'quv amaliyotini ishchi dasturini tuzadi, amaliyot obyekti imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va yakka tartibdagi topshiriqlarni belgilaydi;

- o'quv amaliyotini kerakli jixoz va anjomlar, zaruriy me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlash chorasini ko'radi;

-amaliyot oldidai bo'lib o'tadigan tashkiliy yig'ilishni uyushtiradi, talabalarni amaliyot raxbarlari va amaliyot dasturi bilan tanishtiradi;

amaliyotga raxbarlik tayinlangan o'qituvchiga o'quv amaliyotini yuqori saviyada mazmunli o'tkazish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalarni beradi;

-amaliyot tugaganidan keyin amaliyot bo'yicha rahbarning xisobotini qabul qiladi;

komissiya a'zosi sifatida talabalar xisobotining ximoyasida ishtirok etadi;

amaliyot yakuni bo'yicha fakultet Ilmiy kengashiga xisobot beradi;

4.9.Amaliyot bo'yicha rahbar:

kafedra mudiri bilan birga ishchi o'quv dasturi tuzadi va talabalar uchun topshiriqlar tanlaydi;

amaliyot ob'yektiga oldinroq borib, obyektni talabalarni qabul qilshga tayyorlaydi;

talabalarni umumiy va yakka tartibgacha topshiriqlar mazmuni bilan tanishtiradi va uni bajarish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar beradi, uslubiy yordam uyushtiradi xamda vaktida sifatli bajarilishini nazorat qiladi, material yig'ish va tartibga solishga ko'maklashadi;

ichki tartib-qoidalar, xayot va yong'in xavfsizligi, sanitariya va gigiyena qoidalari bo'yicha mashg'ulot va suxbatlar uyushtiradi, ushbu qoidalarga qatiy rioya qilishimi ta'minlaydi;

qo'shimcha ma'zruzalarni mazmunli o'tkazish choralarini ko'radi;

talabalarning kundalik yuritishlarini, bajarayotgan ishlari va olib borayotgai yozuvlarini tekshirib, kuzatib boradi va zaruriy maslaxatlar beradi;

o'quv amaliyot davrida talabalarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli va mazmunli o'tkazish chorasini ko'radi;

talabalarnning kundalik va xisobotlarini qabul qilib oladi va komissiyaga taqdim qiladi;

- o'quv amaliyoti yakuni bo'yicha kafedra mudiriga xisobot beradi;

4.10.Universitet (fakultet) amaliyot raxbari

amaliyotning zaruriy miyoriy xujjatlar va ko'rsatmalar bilan, amaliyot

CamScanner yordamida skanerlangan

ob'yekti raxbariyati bilan shartnomalar tuzish, talabalarni ob'yektga borishni tashkil qiladi;

ishch amalyot dasturi tuzish ishlarida ishtirok etadi;

xayot va texnika xavfsizligi, sanitariya va gigiyena qoidalari bo'yicha instruktaj o'chkazadi;

o'quv amaliyotining sifatli, talab darajasida va o'quv dasturiga muvofiq holda o'tkazishni, amaliyot muddatiga rioya qilinishi nazorat qiladi;

tashkil qilinadigan qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari, ma'ruzalar sifatini tekshirib turadi;

amaliyot ob'yektida yetarli shart-sharoitlar bo'lishi, talabalar tomonidan xayot xavfsizligiga rioya qilinayotganligi, moddiy-gexnik vositalarininng saqlashni va ishlatilishi, talabalar tomonidan ichki tartib-qoidalariga rioya qilishni nazorat qilib turadi;

amaliyot yakuni bo'yicha xisobot qabul qilish va talabalar faoliyatini baxolashda ishtirok etadi;

- o'quv amaliyoti bo'yicha me'yoriy xujjatlar, tartib koidalarni takomillashtirish, amaliyot sifatiii oshirish chorasiii kuradi;

- fakultet amaliyot raxbarishshg o'quv amaliyoti bo'yicha xisobotini kabul kiladi.

4.11. Amaliyot obyekti ma'muriyatiniig vazifalari:

- amaliyotni mazkur Nizomga muvofik xolda tashkil qiladi va o'tkazadi:
- amaliyotni samarali o'tkazish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi;
- amaliyot grafigini va o'tkazish tartibini tuzishda ishtirok etadi;
- amaliyotni o'tkazishga o'z tajribali mutaxassislarini jalb etadi;
- o'z mutaxassislari yordamida talabalar uchun soxa bo'yicha yangiliklar, yashi texnologiyalar, ishni tashkil qilish uslublari, muammolar va ularni hal qilish yo'llariga doir ma'ruza mashg'ulotlari (davra suxbatlari) tashkil qiladi;
- talabalar uchun xayot va texnika xavfsizligi bo'yicha instruktaj o'tkazadi, xayot xavfsizligi uchun javob beradi;

talabalarga obyekt jixozlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi;

- talabalar tomonidan ichki gartib-qoidalarga rioya qilinishini nazorat qiladi;
- talabalar tomonidan ichki intizom buzilgan xollarda ularni jixozlash xakida taklif kiritadi;
- talabalar amaliyotini yakunida uning faoliyatiga baxo beradi.

5. Amaliyotni yakunlash:

CamScanner yordamida skanerlangan

- amaliyotdan keyin ko'pi bilan bir xafta muddatda talaba xisobot tayyorlaydi va kundalik xamda boshqa topshiriqlar bilan birga amaliyot raxbariga topshiradi;

- asosiy xisobot shakli kundalik, topshiriqlar va uning natijasi haqidagi ma'lumot va yozma xisobot xisoblanadi. Xisobotda talaba tomonidan bajarilgan ishlar mazmuni va bajarilishi haqidagi ma'lumotlar, xulosa, taklif va mulolazalar keltiriladi. Kundalik va xisobot ta'lim muassasasi uchun belgilangan shaklda yoziladi.

- xisobot belgilangan kunda maxsus komissiya oldida ximoya qilinadi. Komissiya tarkibiga fakultet va obyekt amaliyot raxbari, fakultetning tajribali professor-o'qituvchilari kiritiladi. Xisobotni baxolash amaldagi baxolash tizimi asosida o'tkaziladi;

- talaba faoliyatini baxolashda tashkilot tomonidan talabaga berilgan tavsifnoma e'tiborga olinadi;

- amaliyot yakuni fakultet Ilmiy kengashi yoki ishlab chiqarish majlislarida muxokama qilib boriladi;

- amaliyotga uzurli sabablarga ko'ra qatnasha olmagan talabalar amaliyot o'tish uchun tashkilotga takroran (tatil paytida) yuboriladi;

8-semestr

III. IV -kurs talabalari bilan o'tkaziladigan malakaviy amaliyotga rahbarlik va uni tashkil qilish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar

1. Pedagogik amaliyot mazmuni

O'quv ishlari: ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha me'yoriy (Davlat ta'lim standartlari, tegishli fan bo'yicha o'quv dasturlari va h.k.) hujjatlar, o'quv-uslubiy ishlar rejasi va bu bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, fan o'qituvchilarining taqvimiy ish rejalari, dars va darsdan tashqari o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari rejasi va konspektlari, sinf jurnali, o'quvchilar bilimini baholash me'zonlari hamda ta'lim jarayonining boshqa ishchi hujjatlari bilan tanishish. Biriktirilgan fan o'qituvchisi va boshqa tajribali o'kituvchilarning darslari va darsdan tashqari o'quv-uslubiy tadbirlarini kuzatish hamda tahlil qilish. Fan o'qituvchisining bevosita yordamida o'tiladigan darslarga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Mystaqil ravishda o'qituvchi nazoratida o'tiladigan tajriba darslariga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Baholanadigan (sinov) darslariga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Darsdan tashqari mashg'ulotlar (fakultativ dars, qo'shimcha dars, tugarak va va h.k.) va o'quv-uslubiy tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Boshqa amaliyotchi talabalar darslari hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarida ishtirok etish va tahlil qilish.

Ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar: ta'lim muassasasi va sinf rahbarining ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar rejasi bilan hamda bu bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish. Ta'lim muassasasi ma'muriyati va sinf rahbari

CamScanner yordamida skanerlangan

tomonidan tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda faol ishtirok etish. Ma'naviyat soatlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Sinf rahbarining ish rejasida belgilangan tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Sinfning va alohida tanlangan o'quvchining ruhiy holatlarini o'rganish va tahlil qilish, bu bo'yicha pedagogik-psixologik ma'lumotlarni jamlab borish, tahlil qilish va tavsifnoma tayyorlash.

Tashkiliy ishlar: ta'lim muassasasi ma'muriyatining ish rejalari va ish uslublari, ichki tartib-qoidalar, pedagogik kengash va uslubiy birlashmalar ish rejalari bilan tanishish, ularning yig'ilishlarida ishtirok etish. Xo'jalik va tadbirkorlik ishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish.

Hisobot tayyorlash: amaliyot davomida reja bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, duch kelingan qiyinchilik va muammolar hamda ularni bartaraf etish uchun ko'rilgan choralar, amaliyot jarayonini bo'yicha kundalikda qayd etib borilgan fikr-mulohazalar asosida hisobot tayyorlash. Hisobot himoyasiga tayyorgarlik ko'rish (taqdimot tayyorlash).

2. Pedagogik amaliyot bosqichlari

2.1. **Pedagogik amaliyotga tayyorgarlik ko'rish (amaliyot oldidan):** fanni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya hamda kasbiy fanlar bo'yicha bilimlarni takrorlash, amaliyot dasturi bilan tanishish, mas'ul metodist o'qituvchilardan kerakli maslahatlarni olish, amaliyot oldi konferensiyasiga qatnashish.

2.2. **Tanishuv amaliyoti:** ta'lim muassasasining joylashishi, tuzilmasi, hayoti, muhiti, rahbariyati va jamoasi, fan o'qituvchilari va sinf rahbari bilan tanishish. Rahbariyat, fan o'qituvchisi va sinf rahbari ish rejasi, fan bo'yicha kalendar reja, konspektlar, sinf jurnallari va boshqa meyoriy hujjatlar bilan tanishish, sinf bilan tanishish. Tegishli fan o'qituvchilari darslariga qatnashish.

2.3. **Passiv (kuzatish, ish o'rganish) amaliyot:** Fan o'qituvchisi va boshqa tajribali o'qituvchilar darslariga va darsdan tashqari mashg'ulotlariga qatnashish hamda tahlil qilish, fan o'qituvchisi yordamida va nazoratida o'tiladigan tajriba darslari va darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlari hamda tarbiyaviy tadbirga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Biriktirilgan sinf va alohida tanlangan o'quvchi ustida pedagogik va psixologik kuzatishlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish.

2.4. **Faol amaliyot:** fan o'qituvchisi va metodistning nazoratida o'tiladigan dars va darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tish, sinov darslariga va darsdan tashqari mashg'ulot hamda tarbiyaviy tadbirlarga mustaqil tayyorgarlik ko'rish va o'tish, boshqa amaliyotchi talabalar darslariga qatnashish va tahlil qilish, pedagogik va psixologik kuzatishlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish, hisobot hujjatlarini tayyorlab borish.

2.5. **Amaliyotni yakunlash:** pedagogik amaliyot hisobotini tayyorlash, hisobotga qo'shib topshiriladigan hujjatlarni tayyorlash, ta'lim muassasasi

CamScanner yordamida skanerlangan

pedagogik kengashida amaliyot natijalari bo'yicha hisobot berish, ta'lim muassasasida pedagogik amaliyotning yakuniy konferensiyasiga qatnashish, hisobotni taqdimot shaklida himoya qilish.

3. Pedagogik amaliyot davomida amalga oshiriladigan kundalik ishlar:

3.1.Kundalik yuritish (reja bo'yicha bajarilgan kunlik ishlar, o'rganilgan yangi ma'lumotlar, duch kelingan muammolar va uni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan ishlar, pedagogik amaliyot samaradorligini oshirish bo'yicha fikr-mulohazalar va boshqalar yozib boriladi).

3.2.Sinf va alohida tanlangan o'quvchi ustida pedagogik-psixologik kuzatish olib borish, uning natijalari bo'yicha ma'lumot to'plash va tahlil qilib borish.

2. Ta'lim muassasasi pedagogik kengashlari va fan bo'yicha uslubiy birlashma yig'ilishlarida faol ishtirok etish.

3.3.Ta'lim muassasasi miqyosidagi yig'ilishlar, ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda faol ishtirok etish.

3.4.Amaliyot davomida paydo bo'lgan kasbiy muammolarni aniqlab, tahlil qilish va hal etib borish.

3.5.Ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganib borish va tadbiq etish.

4. Pedagogik amaliyot bo'yicha hisobotning namunaviy shakli va mazmuni

4.1. **Titul varaqasi:** ta'lim yo'nalishi, kurs, guruh, talaba, uslubchi o'qituvchi, fan o'qituvchisi, guruh rahbarining ism-sharifi, amaliyot o'tilgan ta'lim muassasasi, amaliyot muddati.

4.2. **Hisobot mazmuni:** amaliyot davomida bajarish belgilangan tadbirlar va uning ijrosi bo'yicha amalgan oshirilgan ishlar: amaliyotni o'tish hamda o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va olib borish bo'yicha tanishib chiqilgan me'yoriy va ishchi hujjatlar, biriktirilgan sinf va fan o'qituvchisi, kuzatilgan va tahlil qilingan darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlar haqida ma'lumotlar, o'qituvchi yordamida va nazoratida o'tilgan darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlar (fakultativ dars, tugarak, qo'shimcha dars va h.k) hamda tarbiyaviy tadbirlar bo'yicha ma'lumotlar, mustaqil tayyorgarlik ko'rilgan va o'tkazilgan darslar hamda darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirlar hamda ularning baholanishi bo'yicha ma'lumotlar, ishtirok etilgan yig'ilishlar, kengashlar va boshqa ommaviy tadbirlar haqida ma'lumotlar, biriktirilgan sinf va alohida tanlangan o'quvchi ustida o'tkazilgan pedagogik va psixologik kuzatishlar hamda uning natijasi, ota-onalar bilan olib borilgan ishlar, sinf bilan o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar va ma'naviyat soatlari, o'rganilgan yangiliklar, pedagogik va axborot texnologiyalari, tarbiyaviy usullar bo'yicha ma'lumotlar.

CamScanner yordamida skanerlangan

4.3. **Xulosa va takliflar:** pedagogik amaliyot jarayonining tashkil etilish va o'tkazilish saviyasi, pedagogik amaliyot talabaga nima berganligi, duch kelingan qiyinchilik va muammolar hamda uni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan ishlar, pedagogok amaliyotning sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha fikr-mulohazalar.

5. Hisobotga qo'shib topshiriladigan hujjatlar

5.1. Kundalik
5.2. Fan bo'yicha o'quv dasturi, taqvimiy va tarbiyaviy ishlar rejasi
5.3. Fan o'qituvchisi va boshqa tajribali o'qituvchilarning kuzatilgan darslari tahlillari.
5.4. Amaliyotchi talabalarning kuzatilgan darslari tahlili.
5.5. Sinov darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar konspektlari.
5.6. Sinov darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlari tahlili bayonnomasi.
5.7. O'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar va ma'naviyat soatlari bayonnomalari.
5.8. Sinfga va o'quvchiga tavsifnoma.
5.9.Ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan amaliyotchi talabaga berilgan tavsifnoma.

Malakaviy (pedagogik) amaliyot davrida dars mashg'ulotlari sifat ko'rsatgichini baholash me'zoni

Sinf_____Fan_____
Mavzu:_____
_____
Amaliyotchi talaba_____
sana_____
Tahlil qiluvchilar:1._____imzo_____
2._____imzo_____
3._____imzo_____

№	Mashg'ulotga (o'qituvchi) oid ko'rsatkichlar mazmuni	Yuqori ball	Qo'yilgan ball	Izoh
	1. Darsning tashkiliy ko'rsatkichlari (14 ball)			
1	Darsning belgilangan vaqtda boshlanishi	4		
2	Sinfning darsga tayyorlik holati	2		
3	Sinf jurnalini rismiylashtirish holati	2		
4	Davomat ko'rsatkichi	6		
	2. Darsning o'quv-uslubiy ta'minot darajasi (9 ball)			
5	Mavzuga doir o'quv-uslubiy adabiyotlarning mavjudligi	3		
6	Mavzu bo'yicha tarqatma materiallar mavjudligi	3		
7	Mavzuning taqvim rejaga mosligi	3		

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Darsning ilmiy-uslubiy ko'rsatkichlari (21 ball)				
8	Oldingi mavzuni o'zlashtirish sifatini tekshirish	2		
9	Yangi mavzuni oldingi mavzular bilan bog'lanishi	2		
10	Mavzu dolzarbligining asoslanishi	3		
11	Faktlarning asoslanishi	4		
12	O'quvchilarning faollik darajasi	4		
13	O'quvchilarning mavzuni qabul qilish darajasi	4		
14	Yangi mavzuni o'zlashtirish sifatining nazorati	2		
4. Darsning bayon usuli		**(30 ball)**		
15	Dars bayon usulining sifat darajasi	6		
16	Darsning interfaollik darajasi	6		
17	Darsda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi	4		
18	Darsda ilg'or ped. tex-lardan foydalanish darajasi	6		
19	Darsning ko'rgazmalilik darajasi	4		
20	O'qituvchining nutq madaniyati	4		
5. Darsning xulosa qismi		**(6 ball)**		
21	Mavzu bo'yicha xulosalar va topshiriq berilishi	2		
22	O'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimining baholanishi	2		
23	Kelgusi dars mavzusi bo'yicha ma'lumot berilishi	2		
6. Darsning va o'qituvchining sifat darajasi (20 ball)				
24	Darsning tarbiyaviylik darajasi	4		
25	Darsning amaldagi talablarga javob berish darajasi	4		
26	O'qituvchining fan bo'yicha bilim darajasi	6		
27	O'qituvchining pedagogik mahorat darajasi	6		
	Umumiy ball	100		
7. O'qituvchi va dars sifati yuzasidan qo'shimcha fikr-mulohazalar				

Qo'shimcha izohlar:

a) Talabalarni amaliyot bazasi bo'lgan korxonaga yetib kelishlari va birlamchi maishiy muammolarning hal etilishi oldindan rejalashtiriladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

b) 2-bandda ko'rsatiladigan ishlar hajmining taqsimoti amaliyot o'tkaziladigan korxonaning tarkibiga mos bo'lishi lozim.

v) Talabalarni bir ishchi joydan ikkinchisiga o'tkazish (4-band bo'yicha) universitetdan tayinlangan amaliyot rahbarining roziligiga ko'ra amalga oshiriladi.

Hisobotni himoya qilish shakli

Malakaviy (o'quv tanishuv) amaliyotning hisoboti videoproyekter yordamida "Taqdimot" shaklida himoya qilinadi.

3.

IV. Fanning bilim va ko'nikmalar jihatidan ega bo'lishi

2 – semester

Bilim va ko'nikmalar jihatidan:

- Korxona bilan tanishish: korxonaning tashkil topish tarixi va rivojlanish rejasini o'rganish: korxonaning boshqarish strukturasi: korxonaning xom-ashyo bazasi, ishlab chiqariladigan mahsulot turlari va ishlab chiqarish hajmi: korxonadagi bosh va o'rta pog'ona rahbarlarining vazifalari va huquqlari.
- Korxonaning asosiy va yordamchi sexlari (bo'limlari) bilan tanishish, joylashishi va texnologik sikl bo'yicha o'zaro bog'liqligi: korxona laborotoriyasining ish faoliyatini o'rganish.
- Amaliyot o'tashning kalendar rejasiga binoan asosiy sexlarning ishchi joylarida mehnat qilish.
- Mahsulot ishlab chiqarishning texnologik liniyalari (2.3 band bo'yicha) bilan tanishish.
- Asosiy texnologik jarayonlarning turlari va ularning tavsifi.
- Jarayonlarning borish tartibi va texnologik parametrlari.
- Texnologiyaviy liniya tarkibiga kiruvchi asosiy mashina va jihozlarning tuzilishi, ishlash prinsipi va texnik kursatkichlari.
- Xom ashyo va tayyor mahsulotning texnologik tavsifi (DAST va TSH talabalari asosida).
- Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, texnologik jihozlarda ish xavfsizligini ta'minlash qoidalarini o'rganish.
- Korxonada suv, havo va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qilinayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish.
- Korxonada ilmiy-texnika yutuqlarini, ilg'or texnologiya va mehnatni tashkil etishning samarali uslublarini qo'llash borasida qilinayotgan ishlar bilan tanishish.

Fanning bilim va ko'nikmalar jihatidan ega bo'lishi

4 – semester

Bilim va ko'nikmalar jihatidan:

- talabalarning muayyan fan (yoki fanlar) bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustaxkamlash va chuqurlashtirish, tanlagan kasbiga nisbatan qiziqish va muhabbat uygotish;
- amaliyot ob'yekti, korxona ish faoliyati bilan tanishish, uning o'ziga xos jihatlarini o'rganish;
- kasb bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va dastlabki amaliy ko'nikmalarni egallash;
- hayot xavfsizligi, gigiyena va sanitariya qoidalariga rioya qilishni o'rganish va bu bo'yicha ma'lum ko'nikma hosil qilish;
- kasbga doir yangi texnologiyalar, ularning amaliy tadbiqlari va imkoniyatlari bilan

CamScanner yordamida skanerlangan

tanishish va amalda qo'llashni o'rganish;

- kasbga tegishli muammolarni aniqlash, tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish malakasini egallash;
- berilgan aniq topshiriqlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash, saralash, tahlil qilish va tizimga solishni o'rganish;
- berilgan muayyan vazifalarni tabiiy sharoitlar amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnik vositalar, anjomlar va boshqa jihozlarni tanlash, ulardan foydalanish va saqlash yo'llarini o'rganish.

8 – semester

Fanning bilim va ko'nikmalar jihatidan ega bo'lishi

Talabalar kimyo fanini, mohiyati va o'qitish maqsadi va vazifalarini o'rganadi
O'qituvchining jamiyat oldidagi ma'suliyati va vazifalari nimalardan iboratli ekanligini bilib oladilar.
Kimyo fanini o'qitishning ta'limiy maqsadi va vazifalarini o'rganadilar.
Kimyo fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni tarbiyalab borish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.
Kimyo fanini o'qitishda o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini oshirish dunyoqarashlarini shakllantirib borishni o'rganadilar.
Kimyo o'qitishning metodlari va uslublarini o'rganadilar va dars davomida ularni og'zaki, ko'rgazmali va tajribaviy tashkil qilish usullari haqida bilimga ega bo'ladilar.
Kimyo o'qitishning amaliy, va innovatsiyon tarzda tashkil qilish usullarini o'rganadilar.
Kimyo o'qitish vositalari haqida bilib oladilar.
Kimyo o'qituvchisi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilishni o'rganadilar.
Dars va uni o'tkazish metodikasini o'rganadilar. va sinfdan tashqari qanday ishlarni amalga oshirish haqida bilib oladilar.
Kimyo o'qitishda natijalarni nazorat qilishning ahamiyati va vazifalari nimalardan iboratligi haqida ko'nikmalar hosil qiladilar.
Olgan bilimlarini baholash, joriy, oraliq va yakuniy baholarni jamlash va reyting chiqarishni o'rganadilar.
Kimyo fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganadilar.
Kimyo fanini o'qitishda zamonaviy darslarni tashkil qilishni o'rganadilar.
Kimyo fani o'qituvchisining innovatsion faoliyatini loyihalashtirishni o'rganadilar.
Kimyo fanini o'qitishda o'yinli texnalogiyalarni va ularni qay vaqtda qo'llashni o'rganadilar.
Kimyo fanini o'qitishda didaktik o'yinli darslarning turlari haqida bilib oladilar.
Kimyo fanini muammoli o'qitish asoslarini o'rganadilar.
Kimyo fanini o'qitishda interaktiv texnologiyalarni o'rganadilar.
Kimyoni tabaqalashtirilgan holda o'qitishning xususiyatlari haqida bilib oladilar.

4. **V. Kreditni olish uchun talabalar:**

Amaliyotga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va berilgan vazifa topshiriqlarini bajarish, yakuniy hisobot topshirish.

5. **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

CamScanner yordamida skanerlangan

2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.

3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.

7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi "O'qituvchi va murabbiylar– yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir". Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 1 oktabr, №207 (7709).

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi "O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi 287-sonli qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 may "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil yetish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-sonli Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral, "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-sonli Qarori.

CamScanner yordamida skanerlangan

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-aprel 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to‘g'risida”gi qarori.

20. Asqarova O‘. M. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. T: ISTIQLOL, 2005.
21. G‘aybullayev N.R, va boshqalar. Pedagogika ma’ruzalar matni. T:2000.
22. Ivanov P.I., Zufarova M. E. Umumiy psixologiya. T: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
23. Norqulov U.M., Haydarov G‘.Sh., Ruziyev I.X., Mamatov A., Norqulov O‘.M. Umumta’lim maktablarida kimyo fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma.-Samarqand: Samarqand VXTXQTMONM, 2020.
24. Norqulov U.M., Ruziyev E.A., Nasimov X.M., Ruziyev I.X. Kimyo fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar. (Interaktiv, interfaol usullar va keyslar). Uslubiy qo‘llanma.-Samarqand: SamDU, 2020.
25. Xushmurodova M. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvga asoslangan ta’lim. Respublika ilmiy amaliy konferensiayasi materiallari. –Samarqand: 2018. b. 247-248.
26. Rahmatullayev N.G. Kimyo o‘qitish metodikasi fanidan ma’ruzalar matni. –Toshkent: TDPU. 2007.
27. Rahmatullayev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o‘qitish metodikasi.-Toshkent: O‘qituvchi. 2013.
28. U.Norqulov. Maxsus fanlarni o‘qitish uslubiyati. SamDU,2022. 212bet O‘quv qo‘llanma

Elektron ta'lim resurslari

28. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi: www.edu.uz.
29. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: www.uzedu.uz.
30. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi mul`timedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi:www.eduportal.uz, www.multimedia.uz.
31. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
32. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi:
33. www.tdpu.uz
34. www.pedagog.uz
35. www.Ziyonet.uz
36. www.edu.uz
37. www.chemistry.ru
38. http://lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
39. http://ziyonet.uz – Ta’lim portal ZiyoNET
40. http://natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

CamScanner yordamida skanerlangan

6.	Malakaviy amaliyotning dasturi Samarqand davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2024 yil "24" avgust dagi "1" -sonli bayoni bilan ma'qullangan).
7.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** M.N.Isaqulova – SamDU, Noorganik kimyo va materialshunoslik kafedrasi assistenti. PhD, k.f.f.d. J.Ruziyev – SamDU, Analitik kimyo kafedrasi assistenti. PhD, k.f.f.d. A.N.Muxamadiyev - SamDU, Fizikaviy va kolloid kimyo kafedrasi k.f.f.d., dotsent Q.O.Zohidov - SamDU, Organik sintez va bioorganik kimyo kafedrasi k.f.n., dotsent
8.	**Taqrizchilar:** N.I. Fayzullayev – SamDU Biokimyo instituti Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrasi professori t.f.d.(ichki) T.S.O'rozov – SamDU Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti direktori o'rinbosari dotsent t.f.n (tashqi)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida "Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlari"ni ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Ishchi guruh raisi: **X.T.Trobov**

Noorganik kimyo va material-shunoslik kafedra mudiri: **I.E. Abduraxmanov**

Analitik kimyo kafedra mudiri **R.Begmatov**

Fizikaviy va kolloid kimyo kafedrasi mudiri **N.Q.Muxamadiyev**

Organik sintez va bioorganik kimyo **D.B.To'xtaev**

Institut direktori **S.X. O'roqov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor **prof.A.Soleyev**

CamScanner yordamida skanerlangan

CamScanner yordamida skanerlangan